

HARBIY TA'LIM FAKULTETLARI TALABALARINING KASBIY-KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY – PEDAGOGIK ZARURIYATI

Ўқитувчи Н.А.Жалилов

Низомий Номидаги

Тошкент Давлат Педагогика Университети

Ҳарбий таълим факультети

Annotatsiya. Kreativlik bugun har bir ijodkor bo'lgan, boringki ijodga a'loqasi bo'lmagan soha uchun ham ahamiyatlidir. Kreativlik – bu aslida bizni qoliplardan tashqari firklashga va harakat qilishga undovchi qobiliyatning turi. Ushbu maqolada harbiy ta'lim fakultetlari talabalarining kreativ fikrlash va kasbiy-kreativ kompetentligini oshirishning pedagogik zaruriyati haqida batafsil bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: Harbiy ta'lim, kasbiy-kreativ kompetentlik, pedagogik zaruriyat, harbiy ta'lim turlari, ta'lim dasturi, Qurolli Kuchlar va h.k.

O'zbekiston Respublikasida harbiy ta'lim Qurolli Kuchlar qo'shin turlari uchun kadrlar tayyorlash, aholiga boshlang'ich ta'lim berish tizimi. Harbiy ta'lim 3 bosqich (boshlang'ich, oliy va akademik oliy ta'lim) da amalga oshiriladi. Boshlang'ich harbiy ta'lim umumta'lim maktablarida, o'rta maxsus va o'rta kasb-hunar ta'limi muassasalarida, harbiy litseylarda, O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining o'quv muassasalarida amalga oshiriladi. Oliy harbiy ta'lim Mudofaa vazirligi tizimidagi Toshkent Oliy umumqo'shin qo'mondonlik bilim yurti, Samarqand oliy harbiy avtomobil bilim yurti, Chirchiq oliy tank qo'mondon-muhandislik bilim yurti, Jizzax aviatsiya oliy harbiy bilim yurti hamda Toshkent axborot texnologiyalar universitetining maxsus fakultetida amalga oshirilsa, Ichki ishlar vazirligining Toshkent oliy harbiy-texnik bilim yurti hamda Yong'indan saklash oliy texnik maktabining, Yong'in xavfsizligi oliy texnik maktabida, Oliy Akademik ta'lim O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi hamda Ichki ishlar vazirligining Ichki ishlar akademiyasida amalga oshiriladi.

Hozirgi kunda Mudofaa vazirligi tizimida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi, Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti, Samarqand oliy harbiy avtomobil qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti, Jizzax oliy harbiy aviatsiya bilim yurti, Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Maxsus fakulteti, Toshkent Tibbiyot akademiyasi huzuridagi Harbiy-tibbiyot fakulteti mamlakatda milliy ofitserlar tayyorlash tizimini yuqori pog'onaga ko'tardi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining oliy harbiy ta'lim muassasalarida Qurolli Kuchlarimiz uchun 40 dan ortiq yuqori malakali ofitser kadrlar tayyorlanmoqda.

Kasbiy kompetentsiya mustaqil va mas'uliyatli harakat qilish imkonini beradigan ruhiy holat va shaxsning o'z mehnati natijalaridan iborat bo'lgan muayyan mehnat funktsiyalarini bajarish qobiliyati va vositalariga ega bo'lishi sifatida qaraladi.

V.Monaxovaning fikricha, kompetentsiya uchta jihatning kombinatsiyasi sifatida ifodalanadi: shartli (jumladan, munosabatlarni tushunish va baholashni talqin qilishning adekvatligi), muammoli va amaliy jihatlar (vaziyatni maqsad, vazifalar nuqtai nazaridan tan olishning adekvatligini ta'minlash), me'yorlar), kommunikativ (muloqot va o'zaro ta'sirning ma'lum madaniy modellariga mos keladigan vaziyatlarda adekvat muloqotni tashkil etishga imkon beradi).

O'qituvchining kasbiy malakasi o'ziga ishonch va kasbiy faoliyatda o'zini o'zi anglashda namoyon bo'ladi. Binobarin, kompetentsiya ideal kasbiy faoliyat shakli sifatida ishlaydi. Pedagogik ta'lim mazmunini yaxlit bir butun sifatida bilim va qobiliyatlarning birligi, ijodiy faoliyat tajribasi va pedagogik voqelikka hissiy va qimmatli munosabat tajribasi sifatida qarash mumkin. Pedagogik faoliyat har qanday boshqa kabi nafaqat miqdoriy o'lchovga ega, balki sifat xususiyatlariga ham ega. Pedagogik ishning mazmuni va tashkil etilishini faqat o'qituvchining o'z maqsadlariga erishishda uning imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish darajasini aks ettiruvchi faoliyatga ijodiy munosabat darajasini belgilash orqali to'g'ri baholash mumkin. Pedagogik

faoliyatning ijodiy xususiyati uning eng muhim ob'ektiv belgisidir. Pedagogik vaziyatlarning xilma-xilligi va ularning noaniqligi ulardan kelib chiqadigan muammolarni tahlil qilish va hal qilishda o'zgaruvchan yondashuvlarni talab qilishi bilan izohlanadi.

Kreativlik tushunchasi (lot., ing. "create"-yaratish, "creative"-yaratuvchi, ijodkor) ingliz tilidan tarjima qilinganda ijod ma'nosini anglatadi.

Kreativlikni: ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asoslanib o'qituvchining kreativligi deb uning fikirlaridagi sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'riflash mumkin. Kreativlik insonda mavjud ma'lumotlarni qayta ishlab chiqarish va ularni cheksiz yangi modelini yaratishga javob beradi. "Kreativlik otasi" nomi bilan mashhur Pol Torrans to'rtta kreativlik konikmasini aniqlagan. Uning olib borgan tadqiqotlari shundan dalolat beradiki, mazkur kreativ ko'nikmalarni shakllantirish va ularni baholash mumkin:

1. Ravonlik. Ko'plab g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi ko'p degan so'zga asoslanadi.
2. Moslashuvchanlik. Turli g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi o'zgartirish degan so'zga asoslanadi.
3. O'ziga xoslik. Boshqalarga o'xshamagan, ajralib turuvchi g'oyani o'ylab topish ko'nikmasi noyob degan so'zga asoslanadi.

4. Yaratuvchanlik. G'oyalarni kengaytirish ko'nikmasi qo'shish degan so'zga asoslanadi.

Kreativlik darslarida pedagoglardan ajoyib g'oyalarni o'ylab topish (o'ziga xoslik); ularni kengaytirish (ishlab chiqish); yoki boshqa g'oyalar bilan solishtirish va ulardagi bog'liqlikni topish (moslashuvchanlik) talab etilganda, mazkur ko'nikmalar bir-biri bilan kesishadi. Patti Drepeau tomonidan ham shaxsda kreativlik sifatleri ni muvaffaqiyatli rivojlantirishning to'rtta yo'li ko'rsatilgan:

- Kreativ fikirlash ko'nikmasini shakllantirish;
- Amaliy kreativ harakat ko'nikmalarini rivojlantirish
- Kreativ faoliyat jarayonlarni tashkil etish;
- Kreativ mahsulot (ishlanma) lardan foydalanish.

Xorijiy pedagoglar, xususan, Patti Drapeauning fikricha, bir shaxsning ayniqsa o'qituvchining kreativligi boshqalarni ijodiy jarayonini tashkil etishga ruhlandıradi. "Kreativlik yuqumli xususiyatga egadir; kreativ bo'lish uchun kishi ko'proq kreativ insonlar bilan muloqot qilishi va hamisha izlanishda bo'lishi lozim. Har qanday ko'nikmani shakllantirish mumkin bo'lganiday, kreativ fikirlash qobiliyati yoki ko'nikmasini ham rivojlantirish mumkin. Bu bo'lajak pedagoglarga ham taalluqli bo'lib, kreativlik ustida ishlash bo'lajak pedagoglarga noodatiy tarzda fikrlashga yordam beradi. Biroq, bo'lajak pedagoglarni ruhlandırish va kreativ bo'lishga undash o'qituvchining qay darajada malakali ekanligiga bog'liq.

Kreativlik bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va kreativlik ko'nikmasini shakllantirishda qo'llanma sifatida xizmat qiladi. Bu auditoriyadagi muhit, bo'lajak pedagoglarda fikirlash tarzining shakllanishi, o'qituvchining yondashuv va strategiyalari elementlarini o'z ichiga oladi. Haligacha ta'lim tizimida ko'plab yondashuv va metodlar ijodiy fikirlash emas, talqin va tahlilga, ya'ni berilgan ma'lumotni tushunib, to'g'ri yetkazishga, nari borsa, bir necha axborotni umumiy lashtirib, xulosa chiqara olishga yo'naltiradi.

Xulosa o'rnida aytish o'rinliki, kreativ fikrlash bu bugungi jamiyat va zamonaviy dunyo uchun ahamiyati cheksiz bo'lgan qobiliyatdir. Ayniqsa harbiy soha talabalari uchun bu jangovar holatlarga tayyor turish, favqulodda vaziyatlardan mohirona foydalanish va ong ostiga ta'sir o'tazishni nazorat qilish uchun kerakdir. Harbiy ta'lim fakultetlarida kreativlikni o'qitish pedagogik zaruriyat sifatida qaralishining asl boisi ham shundadir.

Foydalangan adabiyotlar

1. Muslimov N.A. "Bo'lajak kasb ta'lim o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish" /Monografiya. – T.: Fan, 2004.
2. Muslimov N.A. "Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi" /Monografiya. –T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.
3. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.

4. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. "Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot". – T.: "Fan", 2005.
5. Sayidahmedov N. "Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya". – T.: 2003.
5. Жалилов.Н.А "Педагогика соҳасида талабаларнинг креативлик сифатларини ривожлантириш" Xorazm ma'mun akademiyasi axborotnomasi – 1/2022.
6. Jalilov N.A. "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik samaradorligini
7. oshirishda modulli texnologiyalardan foydalanish" Ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnali 2021y 4-son.
8. Jalilov.N.A "Develop the qualities of professional creativity" Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ) Vol. 9, Issue 12, Dec. (2021)

